

ISSN 2181-1601

SCIENTIFIC PROGRESS

Scientific Journal

VOLUME #1 ISSUE #5

ACCEPTANCE AREAS OF THE JOURNAL

- mathematics, physics, informatics;
- chemistry, ecology, geography;
- advances in biology and medicine;
- history, law, aesthetics;
- philology and language teaching;
- physical education and sports;
- music, art and culture;
- philosophy, logic and sociology;
- architecture and economics;
- pedagogy, psychology, defectology



SCIENTIFIC PROGRESS

Scientific Journal

VOLUME #1, ISSUE #5, MARCH 2021

ISSN: 2181-1601



UZBEKISTAN

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA VOKAL-XOR MALAKALARINI
SHAKLLANTIRISH VA RIVOJLANTIRISH USLUBLARI****Sherzod Istamovich Shamsiyev**

Buxoro davlat universiteti
San'atshunoslik fakulteti Musiqa ta'limi
kafedrası o'qituvchisi

Shuxratjon Raximjon o'g'li Ramazonov

Buxoro davlat universiteti San'atshunoslik
fakulteti Cholg'u ijrochiligi yo'nalishi
talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilariga musiqiy ta'lim berish jarayonida vokal-xor malakalarini shakllantirish va rivojlantirish haqida fikr yuritilgan. Xorda o'quvchilar bilan ishlash uslublari sinflar ketma-ketligida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: Xor, kuylash malakalari, diapazon, repertuar, dinamika, registr, tembr, ritm, cholg'u asboblari.

**METHODS OF FORMATION AND DEVELOPMENT OF VOCAL-CHORAL
SKILLS IN PRIMARY SCHOOLS****Sherzod Istamovich Shamsiev**

Teacher of the Department of Music
Education, Faculty of Art History,
Bukhara State University

Shukhratjon Raximjon ugli Ramazonov

Bukhara State University, Faculty of Art
History, student of instrumental
performance

ABSTRACT

This article focuses on the formation and development of vocal and choral skills in the process of teaching music to primary school students. The methods of working with students in the choir are described in the sequence of classes.

Keywords: Choir, singing skills, range, repertoire, dynamics, register, timbre, rhythm, musical instruments.

KIRISH

Xorda kuylash – jamoaviy ijro faoliyatining ko'rinishlaridan biridir. U orqali o'quvchilarning kuylash madaniyati va malakalari shakllantiriladi, ularning umumiy musiqiy rivojlanishi amalga oshiriladi, o'quvchilarga ma'naviy tarbiya beriladi, ularning dunyoqarashi shakllanishi, barkamol avlod tarbiyasi amalga oshiriladi.

Xorda kuylash o'z tabiati bilan qiziqarli badiiy jarayondir. Boshlang'ich sinf o'quvchilari xorda kuylash jarayonida jamoaviy faoliyatni his etib turadilar, ular birlarining ijrolarini nazorat etadilar, xatolarini ko'radilar va bir birlarini tuzatishga

intiladilar. Bir xil tovush balandligida kuylab, unison ijroning xususiyatlarini, ansamblga erishishning naqadar qiziqarli va o'ziga jalb etuvchi jarayon ekanligini bilib oladilar. Bolalardagi vokal ovoz mavjudligi yoki yo'qligidan qat'iy nazar, har bir bolada kuylash malakalarini shakllantirish mumkin. Boladagi yosh xususiyatlari va tovushni to'g'ri rivojlantirish qonuniyatlariga tayangan holda vokal imkoniyatlarini tarbiyalash tovush apparatining to'g'ri rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

O'qituvchining ma'lum yutuqqa erishishi uning xorda kuylashning ahamiyatini qanchalik chuqur ekanligini tushunishi, o'quvchilarda kuylash malakalarini shakllantirish metod va tamoyillarini qanchalik bilishi, bolalar ovozinig xususiyatlari, qo'shiq materialini o'zlashtirish ishini qanchalik samarali tashkil eta olishiga ko'p jihatdan bog'liqdir. O'qituvchining musiqa darslarida vokal-xor faoliyatiga munosabati uning ish natijalari orqali yaqqol namoyon bo'ladi.

Bolalar vokal ovozlari rivojlantirish uchun o'qituvchi bolalarning ovoz imkoniyatlarini bilishi zarur. Jumladan, 6-7 yoshli bolalarda bu imkoniyatlar katta emas. Chunki, ularning kuylashda ovoz apparati hali to'liq shakllanmagan.

Birinchi sinf o'quvchisining ovoz diapazoni $mi^1 - sol^1$, fa^1 - lya^1 diapazoni oralig'ida kuzatiladi. Shuning uchun tanlanadigan ijro repertuari aynan ushbu ijro diapazoni chegarasida bo'lishi zarur.

Ikkinchi sinf o'quvchilarining kuylash diapazoni ancha kengayib, ijro jarayonida ularning ovozi asosan $mi^1 - si^1$ oralig'ida yorqin jaranglaydi. Bu tovush diapazoni ayniqsa, tinglash idroki uchun ham qulay diapazon bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, u tovush boylamlarining imkoniyatlari orqali belgilanadi, ya'ni tovush boylamlari hali ancha ingichka, yupqa va qisqa bo'ladi. Bu esa musiqa mashg'ulotlarida, dars jarayonida o'quvchilarning ovozi zo'riqtirmasdan, yengil va yorqin ijro etishiga erishish bilan bog'liqdir. Ikkinchi sinf oxirida o'quvchilar kuylash diapazonining o'rta chegarasi mustahkamlanadi va takomillashadi. Tovush tembri ijro etiladigan qo'shiq xarakteriga ko'ra jilolanib, o'zgarib boradi. Kuylash diapazoni esa $re^1 - re^2$ ga tenglashadi. Ba'zi bolalarda kichik oktavaning si , lya tovushlari, ba'zilarida esa ikkinchi oktava mi tovushi ham chiroyli yangraydigan bo'lib qoladi.

Uchinchi sinfdan deyarli barcha o'quvchilarning ovozi $do^1 - re^2$ diapazoniga tenglashib qoladi, ba'zilarida yuqori ovoz ikkinchi oktava mi tovushigacha chiqib qoladi. Ayrim o'quvchilardagi tez jismoniy o'sish ulardagi kuylash ovozinig ham tez etilishiga shart sharoit yaratadi.

7-10 yoshdagi bolalarning ovozi keng amplitudaga ega bo'lmaydi. Ular ijrosida asosan mp va mf singari dinamik ottenkalarni keng qo'llash samarali natijalarga olib keladi. Albatta, ovoz diapazonining barcha chegaralarida o'quvchilardan yorqin ovoz

tembrini, yoqimli va chiroyli ijroni talab qilish noo'rindir. Bunga misol tariqasida aytish mumkinki, ovoz diapazonining pastki chegarasida baland kuylash va aksincha, yuqori nuqtalarda past kuylashni talab qilish ular ovozinig xastalanishiga olib kelishi mumkin. Ovozning sifatli jaranglashi faqat ovoz diapazonining o'rta chegaralarida yuzaga keladi.

To'rtinchi sinf o'quvchilari ijrosida pastki va yuqori diapazonda ovozlarning xarakterli jihatlari sezila boshlaydi. Bu ko'krakdan nafas olish orqali kuylashda ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Ular ovozi ustida muntazam, rejali tarzda ish olib borilsa, bolalar ovozi mustahkamlanadi va rivojlanadi.

MUHOKAMA

O'quvchilarda vokal-xor malakalarini shakllantirishda nafas olishga katta ahamiyat qaratish lozim. Buning uchun bolalarning fiziologik jihatlari hamda kuylamasdan mashq qilishiga urg'u bermasdan, asosan bevosita kuylash jarayoni vositasida vokal-xor malakalarini shakllantirishga harakat qilish kerak. Vokal ijroda bolalarning nafasni to'g'ri yo'naltirishini, faqatgina bevosita qo'shiq kuylash orqali amalga oshirish mumkin. Buning uchun qo'shiq va musiqiy mashqlarni kuylash jarayonida nafas ustida ishlashni tashkil etish zarur.

Chiroyli va ifodali kuylash uchun artikulyasiya va diktsiyaning ahamiyati kattadir. Unli tovushlar kuylashning asosini tashkil etadi. Ularda vokal ovozning barcha sifatleri tarbiyalanadi. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda tovush tembri notekis namoyon bo'ladi. Bu asosan unli tovushlarni "yorqin" ifodalay olmaslik natijasida paydo bo'ladi. Unli tovushlar chiroyli yangrashi uchun bolalar kuylash diapazonining barcha chegaralarida yuqori jarangdorlikni saqlashga intilishlari zarur.

Vokal-xor malakalarining yana bir tomoni, bu jamoaviy kuylashda ansamblga erishishdir. Xor asarini birgalikda, muvofiqshtirilgan holda kuylash, ya'ni ijroda ansamblga erishish engil kechmaydi. Ushbu xususiyat faqatgina amaliy ijro faoliyatida amalga oshadi.

NATIJA

Ovozlar ansambli ustida ishlaganda bolalarda ijro mas'uliyati va yonida ijro etayotgan o'rtoqlarini "his qilish"ga, o'z-boshqarish, ijro sifatini tahlil qila olish, o'zini va butun sinf jamoasi ijrosini tinglay olishga o'rgatish talab qilinadi. Bolalar bilan ritmik ansambl ustida ishlab, turli harakatlar va bolalar musiqa asboblariidan foydalanish mumkin. Ularga misol tariqasida; ritmik shaklni chapak chalib ifodalash, o'rtoqlari kuylaganda ularga bolalar cholg'u asboblari orqali jo'r bo'lishni keltirish mumkin.

Vokal-xor malakalarining yana bir qirradi bu xor sozidir. Xor sozi ustida ishlaganda intonatsiya malakalari shakllanadi. Xor sozining ikkita shakli bo'lib, birinchisi gorizontal soz va ikkinchisi vertikal sozdir. Birinchisi ovozlarning unisonga

erishishi bo'lsa, ikkinchisi akkordlarni garmonik ijro etishdan iboratdir. Ular bolalar eshitish qobiliyatining rivojlanishi, shuningdek, eshitish va ovoz o'rtasida muvofiqlikka erishish uchun zarurdir. Chunonchi, ladni his qilish qobiliyati bo'lmasa, tiniq sozga erishib bo'lmaydi, shuning uchun o'quvchilarda lad qonuniyatlarini muntazam shakllantirib borishga asosiy e'tibor qaratiladi.

XULOSA

Shunday qilib, vokal-xor malakalarini shakllantirish ustida ishlash orqali o'quvchilarning xor asarlarini ifodali ijro etishlariga erishiladi. Bu ish o'qituvchidan ma'lum bilimlarni, malaka va ko'nikmalarni, asosiysi, xor ijrosiga chuqur muhabbatni talab etadi. Maktab boshlang'ich sinflarida musiqiy ta'limni tashkil etish o'quvchilarni kichik maktab yoshidan boshlab san'at asarlariga bo'lgan qiziqishini shakllantirishga, ularda milliy musiqa san'atimizga nisbatan ijobiy tasavvurlarni rivojlantirishga ko'maklashadi.

REFERENCES

1. Karimova D. Musiqiy pedagogik mahorat asoslari. - T.: Iqtisod-moliya, 2008.
2. Mirzaev Q. Vokal-xor jamoalari bilan ishlash metodikasi. Toshkent - 2010.
3. Mirzaev Q. Bolalar xor jamoasi bilan ishlash uslubiyoti. Toshkent O'zRFAAK bosmaxonasi - 2009.
4. SHaripova G.. Musiqa va uni o'qitish metodikasi (metodik qo'llanma). Toshkent - 2006.
5. Akbarov I. Musiqa lug'ati. Toshkent – 1997.
6. Алаева, З. М. (2020). Педагогика как наука и искусство воспитания. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)).
7. Алаева, З. М. (2021). РОЛЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В МУЗЫКАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ. *Проблемы науки*, 66.
8. Gaibullaevich, N. F. (2021). METHODOLOGICAL REQUIREMENTS FOR THE SELECTION OF BUKHARA FOLK SONGS IN MUSIC EDUCATION. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 1(01), 83-88.
9. Gaybullaevich, N. F. THE ROLE OF FOLKLORE IN THE RAISING OF CHILDREN.
10. Нуриллаев, Ф. Г., & Нурилаева, Н. К. (2020). Роль Фольклорных песен в воспитании учащихся. *Проблемы педагогики*, (3 (48)).
11. Шамсиев, Ш. И. (2020). Формы организации музыкального общения. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)).

12. Umirzakovna, N. S. (2021). WAYS TO IMPROVE LEARNING EFFICIENCY USING INNOVATIVE TECHNOLOGIES. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 1(01), 41-47.
13. Норова, Ш. У. (2020). Повышение профессиональной компетентности путем подготовки молодежи к хоровой деятельности. *Наука, техника и образование*, (10 (74)).
14. Norova, S. U. (2021). Imam Abu Hamid Al-Ghazali. Teacher-Student Coaching Relations. *The American Journal of Social Science and Education Innovations*, 3(01), 441-445.
15. Umurova, M. Y., & Nurullaeva, N. K. (2020). ТЕОРИЯ И МЕТОДИКА ОБУЧЕНИЯ И ВОСПИТАНИЯ (ПО ОБЛАСТЯМ И УРОВНЯМ ОБРАЗОВАНИЯ). *Проблемы педагогики*, 40.
16. Yorievna, U. M. R., & Karimovna, N. N. (2020). Innovative approach to the development of musical abilities in children with disabilities health opportunities. *Проблемы педагогики*, (2 (47)).
17. Yoshiyevna, U. M. R., & O'G'Li, R. A. R. (2021). MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA "VENA KLASSIK MAKTABI" NAMOYONDALARI HAYOTI VA IJODIYIY FAOLIYATI BILAN TANISHTIRISH USLUBLARI. *Scientific progress*, 1(3).
18. Yarashev, J. T. (2019). Research on Bukhara music heritage through axiologic features. *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol*, 7(12).
19. Yarashev, J. T. (2013). "Bukhorcha" and "Mavrigi" song classes—as a national and noetic spiritual values of the Uzbek nation. *ТРАДИЦИОННАЯ И СОВРЕМЕННАЯ КУЛЬТУРА: ИСТОРИЯ, АКТУАЛЬНОЕ ПОЛОЖЕНИЕ, ПЕРСПЕКТИВЫ*, 114.
20. Yarashev, J. (2019). Artistic and Aesthetic Features of" BuchofTune. *Eastern European Scientific Journal*, 118-122.
21. Миршаев, У. М., & Миршаева, Д. А. (2020). Роль народных песен в нравственном воспитании учащихся. *Проблемы педагогики*, (3 (48)).
22. Миршаев, У. М. (2020). Музыкально-эстетическое воспитание и современные требования к учителю музыки. *Вестник науки и образования*, (21-2 (99)).
23. Mirshayev, U., Sh, S., Cherniavskiy, V., Asadova, S., & Aslanova, N. (2019). The important tendencies in the development of creative and creative potentials in youth. *International Journal of Recent Technology and Engineering*, 8(3-3), 497-500.

SHERZOD ISTAMOVICH SHAMSIYEV, SHUXRATJON RAXIMJON O'G'LI
RAMAZONOV

Boshlang'ich sinflarda vokal-xor malakalarini shakllantirish va rivojlantirish uslublari
(pp. 377-381)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/5-069.%20377-381.pdf>

MOHIGUL TURG'UNBOYEVA, SULAYMON AMIRQULOVICH HAYDAROV

Tarix fanani o'qitishda "O'ttiz yillik urush"ning ahamiyati (pp. 382-386)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/5-070.%20382-386.pdf>

FOTIMA SHERALI QIZI ISMAILOVA, UMIRKHON ODILOVNA AZIMOVA

The Importance of Track and Field Athletics in Humanbody's Life (pp. 387-390)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/5-071.%20387-390.pdf>

MUKHABBAT JALGASBAYEVNA URAZBAYEVA

The Importance of Using Native Language in English Classes (pp. 391-394)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/5-072.%20391-394.pdf>

E'ZOZA ELMUROD QIZI BEKMATOVA, VOXID BAXROMOVICH FAYZIYEV

O'simlik peroksidazasini aniqlash uchun zarur substrat tayyorlash va fek yordamida ferment aktivligini o'rganish (pp. 395-398)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/5-073.%20395-398.pdf>

ФЕРУЗА АХМЕДОВНА ЭГАМНАЗАРОВА

Чет тилларини ўрганишда кўшимча адабиётларнинг роли (pp. 399-402)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/5-074.%20399-402.pdf>

ШАХНОЗА БУРИНЁЗОВНА ЭЛЬБОЕВА

Роль национальных и культурных центров Узбекистана в общественной жизни
(pp. 403-407)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/5-075.%20403-407.pdf>

НУРСУЛТОН ЗАМОН ЎҒЛИ ШАЙХИСЛАМОВ

Когнитив тилшунослик тўғрисида тушунча ва унинг универсал табиати (pp. 408-415)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/5-076.%20408-415.pdf>

А. А. БЎРИБОЕВ

Профессионал таълимда "Нефт ва уни қайта ишлаш" мавзусини ўқитишда интерактив методлардан фойдаланиш методологияси (pp. 416-421)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/5-077.%20416-421.pdf>

ЭЛДОРБЕК ХОМИТЖОНОВИЧ БУТАЕВ

Чегараланмаган тор тебраниш тенгламаси учун бошланғич масалани Maple дастурида ечиш (pp. 422-427)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/5-078.%20422-427.pdf>

У. И. ЗОКИРОВА

Бўлажак ўқитувчиларни бадиий меросининг юксак эстетик қадриятлари асосида маънавий-эстетик тарбиялаш (pp. 428-433)

<http://scientificprogress.uz/storage/app/media/5-079.%20428-433.pdf>